

Sog'lom avlodni tarbiyalashda mahallaninig o'rni

VXTXQTMOI dotsenti Z.S.O'roqova

Mamlakatimizda yoshlarga e'tibor va ularga g'amxo'rlik ko'rsatish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bunga "Sog'lom bola yili" Davlat dasturida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishiga juda katta e'tibor qaratilgan

Oila davlat muhofazasida ekanligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. Yoshlarda sog'lom, ahil oila qurish ishtiyoqini shakllantirish, bir qator davlat jamoat tashkilotlari qatori fuqrolik holatlari dalolatnomalari yozish bo'limlarining ham vazifasiga kiradi. Shu bois ana shu talabdan kelib chiqqan holda ish yuritib kelinmoqda.

Ma'lumki, oila qurayotgan yoki qurish yoshida bo'lganlar navqiron avlod hisoblanadi. Shu sababli yoshlarni oilaga tayyorlash, oila mas'uliyatini chuqur anglashlariga erishish, mustahkam va sog'lom oilani yuzaga keltirishning asosidir. Mehnat jamoalari, mahallalar, maktab va kasb - hunar kollejlari "Nikoh va ahloq", "Milliy turmush tarzimizda oilaning roli", "To'ylar milly qadriyat", "Tibbiy ko'rik - mustahkam oila asosi", "Nikoh shartnomasi - hayotiy zaruriyat", "Sog'lom ona - sog'lom bola", "Sog'lom avlod yurt kelajagi" kabi mavzularda uchrashuvlar, davra suhbatlari, seminar yig'ilishlari muntazam o'tkazilib borilishi lozim. Yoshlar hayotida unutilmas voqea bo'ladigan nikoh to'ylarini fayzli o'tkazish masalasiga ham alohida e'tibor qaratib kelinadi. Ahamiyatlisi, bu yoshlarning barchasi nikohgacha to'liq tibbiy ko'rikdan o'tib, bo'limlarga ma'lumotnoma taqdim etishadi.

Keyingi paytlarda nikoh to'ylarini kamchiqim tarzda, ko'ngilli holda o'tkazish masalasida fuqarolar yig'inlari, mahalla faollari bilan hamkorlikda kopinga ishlar olib borilayapti.

Barkamol avlodni shakllanishida oila bilan birgalikda ta`lim muassasalari, mahalla hamkorligi juda muhimdir. Chunki xalqimizda azal – azaldan bir naql bor “Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham onadir”. O`zbek mahallalari tom ma`noda axloqiy tarbiyaning maskani. Bu borada Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning: “Shu ma`noda mahallani o`z-o`zini bosqarish maktabi, ta`bir joiz bo`lsa, demokratiya darsxonasi, deb atash mumkin”, degan so`zlari ayni haqiqatdir.

Bu ham faqat biz ya`ni o`zbek xalqiga xos bo`lgan madaniyat belgisi bo`lib, agar qo`shnining bolasi nojo`ya harakat qilayotgan bo`lsa, unga vaqtida tarbiya berish ham o`sib kelayotgan yosh avlodni to`g`ri yo`lga boshqarish, jamiyat uchun, xalq uchun muhim ahamiyatga ega. Bizda oila qurilayotganda an`anaviy, milliy va diniy qadriyatlarimizga amal qilinadi. Asrlar davomida ma`naviyatimiz boyib borayotganiga, oilalarimiz mustahkamligiga, bu ko`rsatmalarning insonlar borligi, umrboqiyliigi sabab bo`layotgani sir emas.

Yaxshi, axloqli, go`zal tarbiya insonda xayot va san`atdagi go`zalliklardan bahramand bo`lish, ularni yaxshi baxolay bilish, o`zi ham ushbu go`zalliklarni yaratish tuyg`ularini shakllantirishga yordam beradi. Oila, mahalla, ta`lim muassasalari yaxshi tarbiyani shakllantiruvchi asosiy omillar bo`lib hisoblanadi.

Yaxshi oila, yaxshi mahalla, yaxshi ustoz xushxulqli, ibratli insonlarni tarbiyalaydi

Millatimizning bebaho boyligi bu bizning farzandlarimiz ekanligi davlatimiz raxbari tomonidan ham takror va takror aytib kelinmoqda. Jamiyatimizda bola tarbiyasiga e`tibor qilish, bu millat tarbiyasiga e`tibor qilishdir. Bunda ta`lim tarbiya muassasalarida ham katta e`tibor berilmoqda.

Axloq maskani bo`lmish oilalar yig`indisi fuqarolik jamiyatini, millatni tashkil etadi. Oila mustahkam bo`lsa jamiyat tinch bo`ladi, millat ravnaq topadi. O`zbekistonimizdagi oila siyosati oilalar tinchligi va faravonligiga yo`naltirilgandir.

Xalqimiz bolajon xalq. Oilada farzand tug`ilsa quvonchiga quvonch qo`shiladi. Farzandining benuqson tug`ilib, barkamol inson bo`lib ulg`ayishini

ta'minlash masalasi hukumatimizning doimiy e'tiboridagi masalalaridan biridir. Sog'lom, mustahkam oila jamiyat tayanchi ekan, oila mustahkamligi, jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol avlodning kamolga yetishishi yo'lida ish olib boraveramiz.

Ўзбек халқ мақоларини таржима қилиш муаммолари

ТАТУ Қарши филиали доценти З.С.Ўроқова

Тил, фалсафа ва бадиий ижоднинг ўзига хос ҳодисаси сифатида юзага келган халқ мақоллари фольклорнинг ихчам шакли, аммо теран мазмунга ега бўлган бир жанридир. Ҳар бир тилимиз кўркини, нутқимиз нафосатини, ақл – фаросат ва тафаккуримиз мантиқини ҳайратомуз бир қудрат билан намойиш этган ва эта оладиган бундай бадиёт қатралари халқимизнинг кўп асрлик ҳаётий тажрибалар ва маиший турмуш тарзининг бамисоли бир ойнасидир. Тил ўрганиш иштиёқида бўлган талабалар учун халқ оғзаки ижодининг махсус тури, яъни халқ мақоллари таржимасини ўрганиш жуда қулайдир. Бу нутқимизнинг раван ва бой бўлишини таъминлайди. Талабага миллий урф-одатларни чуқур ўрганишда, ўзбекона ўзлигини танишида, мақоларни ўз она тилида, рус тилида ва хорижий тиллардаги таржимасини ўрганиб қиёсласа, бу уни комил бўлиб етишишига ёрдам беради. Мақол ўзбек халқ ижодиётининг қадимий, оммавий жанрларидан биридир. Масалан: **“Love and business teach eloquence”**. – **“Муҳаббат ва бизнес сўзамолликни ўргатади”**. **“All covet, all lose”**. – **“Ҳаммасига эришаман деган, ҳаммасидан қуруқ қолади”**. **“Blushing is virtue’s colour”**. – **“Уятдан қизармоқ –номус белгиси”**. Бу мақолларда халқимизнинг дунёқараши, ахлоқий нормаси ўз ифодасини топган.

Мақолларда ортиқча сўз ва жумла бўлмайди. Мақоллар тўғри ва кўчма маънога эга бўлади. Масалан: **“Булбул чаманни севар, Одам – Ватанни”** мақолини булбул чаманни севгандай, одам ватанни севар ёки **“Темирни қизигида бос”** – **“Strike the iron while it’s hot”** мақоли тўғри маънода ҳам, кўчма маънода ҳам қўлланади. Тўғри маънода чўзиш ёки юпқа қилиш, умуман турли шаклга солиш учун темирни чўғдек қизариб турган вақтда уриш керак деган маънода ишлатилади. Кўчма маънода эса ҳар бир ишни ўз вақтида қилиш керак деган маънони ифодалайди.

Мақоллар икки хил йўл билан юзага келади

1. Халқнинг кўп асрлик ижтимоий-иқтисодий тажрибалари, кузатишлари асосида

All in the day’s work, it iz – Кундузги ҳаракатда – баракат.

2. У ёки бу шоир ва ёзувчилар ижодидаги ибратли фикрларнинг халқ орасида тарқалиши ва оммалашиви;

Diamond cut diamond – Аччиқни аччиқ кесар.

Мақоллар кўп асрлик ҳаётий тажрибалар, доимий кундалик кузатишлар ҳулосасини тугал фикр тарзида қатъий қутбийликда ифодалар экан, уларда

ҳар бир сўзнинг маъно хилма-хиллиги, ибораларнинг турғунлиги, шаклий барқарорлик устунлик қилади.

Мақоллар донишмандлик рамзи бўлиб келган. Демак, мақоллар таълим – тарбия жиҳатидан катта аҳамиятга эга. У кишиларни огоҳлантиради, маслаҳат беради, йўл-йўриқ кўрсатади.